

XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich,

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Namangan muhandislik-qurilish instituti, Namangan, O'zbekiston.

xulugbek1984@gmail.com

Madaliev Muzaffar Ravshanbekovich

NamMQI magistranti

Annotatsiya. Maqolada xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatidagi debitor qarzlarni aylanishi tahlilini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Bu borada debitor qarzlarni aylanish soni hamda davrini aniqlash usullariga oid ahamiyatli takliflar bildirilgan. Takomillashgan usullarni qo'llanilishi esa tahlil natijalarining aniqligini yanada oshiradi.

Kalitli so'zlar: debitor qarzlari, debitor qarzlari tahlili, debitor qarzlarni aylanish soni, debitor qarzlarni aylanish davri, mahsulot sotishdan sof tushum, mahsulot sotishdan daromad.

Kirish

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda biznes faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan kapital aylanishining tez amalga oshirilishiga bog'liq. Kapital aylanishida faoliyat uchun zarur bo'lgan aktivlar hamda mehnat sarfi muayyan davr oralig'ida ta'minot, ishlab chiqarish, sotish (muomala) bosqichlaridan o'tib, sarflangan xarajatlarga nisbatan, ya'ni olingan foyda miqdoricha, ko'p bo'lgan pul mablag'lari kshchrinishida qaytib kelishiga erishiladi. Hisobot davrida bu jarayon qanchalik tez va ko'p marta amalga oshirilsa, olinadigan samara ham yuqori bo'ladi. Ta'kidlash kerakki, kapital aylanishida har bir bosqichning o'rni o'ta muhim hisoblanadi. Chunki, tayyor mahsulotning eng likvid moliyaviy aktiv hisoblangan pulga aylanishi bosqichida olingan mablag'ning qaytadan ta'minot hamda boshqa maqsadli faoliyatlarga sarflanishi uchun etarli bo'lishi xo'jalik yurituvchi sub'ekt biznes faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi asoslardan biridir.

Raqobatli bozor sharoitlarida mahsulotni sotish bilan sotilgan mahsulot uchun pul to'lovi kelib tushishi oralig'ida muayyan vaqt o'tadi. Bu bozor iqtisodiyotning tub mohiyatidan kelib chiqadi. Tovar ayriboshlash kontragentlar uchun nafliligi nisbatan pastroq boylik (tovar) evaziga nafligini yuqoriroq boylikni qo'lga kiritishdir. Xaridor uchun to'lovning kechroq bajarilishi uning uchun naflilik yana yuqoriroq bo'lishini anglatadi. Sotuvchi esa kelajakdagi yuqoriroq naflilikka umid bog'laydi.

Sotuvchi uchun noxush jihat uning kapitali aylanishi to'xtab qolishi yoki sekinlashuvidir. Demak, bu debitor qarzi shakllanishi va ijro etilishi jarayonini optimallashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ko'p holatlarda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda debitor qarzlarning kapital aylanishini uzluksiz ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul mablag'larining etishmay qolishiga sabab bo'ladigan eng muhim muomala turlaridan biridir. Shuning uchun ham debitor qarzlari biznes faoliyatida keng ko'lamda o'rganilishi shart bo'lgan masala hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Ma'lumki, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda debitor qarzlarning turli yo'nalishlarda yoki maqsadlarda vujudga keladi:

- 1) maxsulot sotish bilan bog'liq;
- 2) xodimlarning mehnat haqi bilan bog'liq;
- 3) xodimlarni ijtimoiy quvvatlash bilan bog'liq;
- 4) xodimlarning safar xarajatlarini qoplab berish bilan bog'liq;
- 5) turli maqsadlarda xodimlar korxonaga mablag'larini tasarruf etishlari bilan bog'liq;
- 6) material, xom ashyo va boshqa resurslar sotib olish bilan bog'liq (bo'naklar);
- 7) qisqa muddatli qarzlarning berish va boshqalar bilan bog'liq. Iqtisodiy adabiyotlarda asosan faqat birinchi maqsad bilan bog'liq debitor qarzlarning haqida so'z boradi.

Bu borada debitor qarzlarni aylanishini tahlil qilish masalasi bo'yicha adabiyotlarda bildirilgan fikrlarni shartli ravishda yirik ikki guruhga ajratish mumkin.

Birinchisi. MDH olimlari va mutaxassislari qarashlari.

Ikkinchisi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardagi olimlar va mutaxassislarning yondashuvlari.

Respublikamiz olimlari M.Yu.Raximov, N.N. Qalandarova [4, 455 b.], M.K. Pardaev, J.I. Isroilov, B.I. Isroilov [5, 414 b.], Z.A. Sagdillaeva, I.H. Choriev, A. Mahmudov [6, 237 b.], Rossiyalik olimlar L.V. Dontsova, N.A. Nikiforova [7, 272 b.], M.A. Vaxrushina, N.S. Plaskova [8, 91 b.] va boshqa qator mutaxassislarni qarashicha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda debitor qarzlarni aylanishini tahlil qilishda hisobot davridagi mahsulot sotishdan sof tushum hamda jami debitor qarzlarni o'rtacha miqdori ko'rsatkichlaridan foydalanish ko'rsatib o'tilgan. Bizning fikrimizcha, bu tartibda mahsulot sotishdan sof tushum ko'rsatkichi sotilgan mahsulot hajmi yoki sotishdan olingan daromad ko'rsatkichi bilan bir mazmunda berilmoqda. Biroq, amaliy biznes faoliyatida mazkur tushunchalar bir-birlaridan ham mazmunan, ham ma'lumot olish manbasi

jihatidan jiddiy farq qiluvchi tomonlariga ega. Ayniqsa, yirik turdagi korxonalarining hisobot davri yakunida ularning farqini yaqqol ko'rish mumkin (faqat, ayrim holatlarga istisno qilinadi).

Ta'kidlash lozimki, debitor qarzlari tahlilida ma'lumotlar qaysi manbalardan olinishi ham ahamiyatga ega. An'anaviy meros qilib olingan buxgalteriya hisobida hozirgi tushunishdagi sotishdan sof tushum ko'rsatkichi mavjud emas edi. Hozirgi sotishdan sof tushum ko'rsatkichi debitor qarzi shakllanishi barcha summasini ifodalamaydi. Moliyaviy nuqtai nazardan bu shartli ko'rsatkich. U haqiqiy debitorlik summasidan qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i summasiga kamroq. Shuning uchun mahsulot sotishdan sof tushum ko'rsatkichi debitor qarzlari tahlilida ehtiyotkorlik bilan qo'llanilishi lozim.

Bundan tashqari, jami debitor qarzlari o'rtacha miqdori ko'rsatkichlaridan foydalanish mazkur turdagi mablag'ni aylanish tezligi hamda davrini tijorat tartibidagi hamda tijorat tartibida bo'lmagan holatlar bo'yicha ajratib aniqlab bera olmaydi.

Yuqoridagi holatlar debitorlik qarzlari aylanishini ko'rsatuvchi ko'rsatkichlardan kelib chiqib yoki ularga asoslanib amalga oshiriladigan barcha hisob-kitoblarning aniq bo'lishiga salbiy ta'sir etadi.

AQSh lik olimlar Lavrence Revsin, Daniel W. Collins, W. Bruce Johnson [9, 335 b.], Donald E. Kieso, J. Weygandt, Terry D. Warfieldlar [10, 338 b.] esa bu borada sotilgan mahsulot hajmi yoki sotishdan olingan daromad hamda tijorat tartibidagi debitor ko'rsatkichini olmoqdalar.

Bu holatda debitor qarzlari aylanishini hisoblashda mahsulot sotishdan sof tushum ko'rsatkichi e'tiborga olinmayapti. O'tkazilgan tadqiqot natijalari ko'rsatmoqdaki, sotilgan mahsulot hajmi yoki sotishdan olingan daromad ko'rsatkichi har doim sotishdan sof tushum ko'rsatkichi bilan bir xil bo'lmaydi.

Faqat tijorat tartibidagi debitor qarzlari ko'rsatkichlaridan foydalanish esa, jami debitorlar hamda tijorat tartibida bo'lmagan debitor qarzlarni bo'yicha aylanishni e'tibordan chetda qoldirishga olib keladi.

Mazkur maqolada debitor qarzlari tahlilini yanada takomillashtirish bo'yicha o'z qarashlarimizni bildirmoqchimiz.

Tahlil va natijalar

Hozirgi davr iqtisodiy munosabatlarida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatidagi debitor qarzlari biznes faoliyatining ajralmas qismi bo'lib bormoqda. Misol uchun, amaldagi "Buxgalteriya balansi"ning (1-shakl) aktiv qismining "Joriy aktivlar" bo'limidagi 210- dan to 310-gacha moddalari debitor qarzlari aks ettirib beradi. Iqtisodi rivojlangan mamlakatlardagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlardagi "Buxgalteriya balansi"da (Balance sheet) ham debitor qarzlari oid moddalar mavjud. Debitor qarzlari, ularning tarkibi, ular to'g'risidagi ma'lumotlar,

ma'lumotlarning o'zgarishi xo'jalik yurituvchi sub'ktlar faoliyatini tushnishda hamda ular bo'yicha to'g'ri biznes qarorlarini qabul qilishda o'ta muhim ahamiyatga ega.

Debitor qarzlarni tahlil qilish uchun, avvalo, buxgalteri hisobi tizimida ularning tarkibini to'g'ri belgilab olish kerak. Shu bilan birga debitorlik qarzlarni tahlil qilishni o'zining ham asoslangan tizimi bo'lishi zarur. Bu boradagi xorijiy tajribalariga e'tibor bersak, ularda xalqaro talablarga javob beradigan hamda umumiy uyg'unlikka ega tizim bor va u yaxshi ishlamoqda.

Ma'lumki, O'zbekistonda buxgalteriya hisobining xalqaro andozalarga o'tkazilishi 1997 yildan boshlangan edi. 2001 yildan 21-sonli BHMS amalga kiritilishi bilan hisob yuritishda debitor qarzlari tarkibi xalqaro amaliyotga yaqinlashtirildi, ya'ni debitor qarzlarni moliyaviy mazmuni bo'yicha toifalarga ajratila boshlandi. Muhim jihat shundan iborat bo'ldiki, maxsulot sotish bilan bog'liq debitor qarzlarni, resurslar sotib olinishida bo'lgan to'lovlari ko'rinishidagi debitor qarzlarni va boshqa toifadagi debitor qarzlarni alohida-alohida ko'rinishda boshladi.

Lekin, hozirga qadar ham debitor qarzlarni hisobga olish, o'rganish, tahlil qilish va ular bo'yicha moliyaviy echimlar ishlab chiqishda asosan mahsulot sotish tufayli kelib chiqayotgan debitor qarzlarni e'tiborga olinadi. Bunda tahlilni olib borishdagi asosiy ko'rsatkichlar debitor qarzlarning aylanishlari soni va debitor qarzlarning aylanish davridir (kunlarda).

Ma'lumki, MDH hamda mamlakatimizdagi sohaga doir ko'plab adabiyotlarda debitor qarzlarni aylanish sonini quyidagicha aniqlanish tavsiya etilgan:

$$D_{qa} = S_{st} / D_{qo} \quad (1)$$

Bu erda: D_{qa} – debitor qarzlarni aylanish soni;

S_{st} - sotishdan sof tushum;

D_{qo} – debitor qarzlarni o'rtacha qiymati.

Debitor qarzlarni aylanish davrini aniqlash esa quyidagi tartibda berilgan:

$$D_{qad} = (D_{qo} * 360) / S_{st} \quad (2)$$

Bu erda: D_{qad} – debitor qarzlarni aylanish davri, kunda.

Ushbu 1-hamda 2-formulalarda keltirilgan formulalarga ma'lumotlar amaldagi Moliyaviy hisobotning 1-shakli "Buxgalteriya balansi" hamda 2-shakl "Moliyaviy natijalar to'g'risida" gi hisobot shakllaridan olinadi.

Dastlabki qarashda mazkur ikki formulada ham hech qanday kamchilik yo'qdek tuyuladi. Biroq, biz har bir foydalaniladigan ma'lumotlarning asl mazmuniga e'tibor qilsak, masalaning muammoli tomonlari ham borligini ko'rishimiz mumkin.

E'tibor berilsa yuqoridagi ikki formulada ham sotishdan sof tushum (S_{st})

ko'rsatkichi ishlatilmoqda. Ushbu ma'lumot amaldagi Moliyaviy hisobotning 2-shakli "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobotning "Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan sof tushum" deb nomlangan 010-satridan olinadi. Endigi navbatda ushbu satrga tegishli rasmiy manbalardagi ko'rsatmalarga e'tiborimizni qaratamiz.

Birinchi rasmiy manbada - "Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan sof tushum" moddasi bo'yicha (010-satr) mahsulot, tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishdan olingan tushum ko'rsatiladi, bunda soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i) hamda qaytarilgan tovarlar va tayyor mahsulotning qiymati, xaridorning sotish narxlaridan chegirmalari chegiriladi. 010-satr asosiy (operatsion) faoliyatdan daromadlarni hisobga olish hisobvaraqlari (9000) ma'lumotlari bo'yicha to'ldiriladi.

Asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga (lizingga) berish hisoblangan korxonalar 010-satr bo'yicha joriy hisobot davriga tegishli bo'lgan daromad summasini aks ettiradilar.

Vositachi korxonalar 010-satrdan komission haqlar summasini aks ettiradilar, deb ko'rsatma berilmoqda.[2]

Ikkinchi rasmiy manbada esa "Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar" da (9000) - tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

9010 "Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar";

9020 "Tovarlarni sotishdan daromadlar";

9030 "Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar";

9040 "Sotilgan tovarlarning qaytishi";

9050 "Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar".[3]

Yuqoridagi qayt etilganidek, mazkur schyotlarda aks ettirilgan summalar haqiqiy debitorlik summasidan qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i miqdorlariga kam. Aslini olganda, agar tovar to'la ravishda nasiyaga sotilsa, debitorlik qarzi kutilayotgan yalpi tushumga (sotishdan daromad summasiga) teng bo'ladi. Tovar qisman nasiyaga sotilganda vaziyat birmuncha o'zgaradi. Barcha hollarda ham debitorlik qarzi summasini qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i miqdoriga kamaytirib ko'rsatish o'rinli emas.

21-sonli BHMS qoidalariga binoan mahsulot nasiyaga sotilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari beriladi:

D-t Xaridorlardan olinadigan hisoblar (4010)-schyot faktura jami summasiga

K-t Sotishdan daromad (9010)-sotishning sof summasiga

K-t Byudjetdan QQS bo'yicha qarz (QQS summasiga).

“Moliyaviy natijalar to'g'risidagi” hisobotga 9010 hisobning ma'lumotlari kiritiladi. Mazkur summa esa debitor qarzining jami summasini aks ettirmaydi. Demak, “Moliyaviy natijalar to'g'risida” gi hisobotning ma'lumotlaridan debitor qarzlari aylanishi ko'rsatkichlarini hisoblab chiqish uchun foydalanish o'rinli emas. Bunday ma'lumotlarni 4010 hisobning kreditidan yoki 5110 (5210) hisobning debetidan olinishi o'rinli bo'ladi.

Qayd etish lozimki, debitor qarzlarning aylanishi yuqoridagi ko'rsatkichlari korxonaning mahsulot sotish borasidagi faoliyatni umumlashtirib ifodalovchi ko'rsatkichlardir. Aslida korxonada har bir debitor qarzi shakllanishi qanchalik darajada maqsadga muvofiq ekanligini tinimsiz ravishda o'rganib borishi zarur va moliyaviy boshqaruvning bu aniq vazifasini inkor etish yoki ikkinchi darajali debitor qarash mumkin emas. Jami debitor qarzlari alohida debitor qarzlardan tashkil topadi. Yirik debitor qarzlari, ayniqsa muddati yaqinlashayotgan yoki o'tgan debitorlik alohida tahlil etilishi va nazoratga olinishi lozim bo'ladi.

Bunday yondashuvda 2-shakl “Moliyaviy natijalar to'g'risida”gi hisobotning ma'lumotlarini debitor qarzlari tahliliga mos qilib olish o'rinli emas. Bu holda korxonaga kelib tushayotgan real pul oqimlariga tayanish lozim. Bunday axborot esa eng umumlashgan tarzda “Pul oqimlari harakati” to'g'risidagi hisobotda berilgan. Mazkur hisobotning tegishli satri mahsulot sotish bilan bog'liq pul tushumlarini aks ettiradi. Biroq, aynan debitor qarzlari bo'yicha pul tushumlari alohida ajratib ko'rsatilmaydi.

Yuqorilardan ko'rinib turibdiki, mahsulot sotish bilan debitor qarzlari aylanishini tahlil etish uchun moliyaviy hisobotlarning o'zidan aniq ma'lumotlar olishning imkoni yo'q. Chunki ularda debitor qarzlari shakllanishi ham, to'lanishi ham alohida ajratib ko'rsatilmagan. Darsliklar va o'quv qo'llanmalar tavsiya etadigan formulalar ham debitor qarzlari aylanishi tendentsiyalari aniqlash imkonini bersada, aniq moliyaviy qarorlar qabul qilinishini muayyan ma'noda cheklab qo'yadi.

4010 hisobning debetidagi yozuvlar debitor qarzlari shakllanishi haqida etarli to'la ma'lumot beradi va tahlil uchun eng ishonchli manba deyish mumkin. Chunki bu hisobga debitorning qarzi to'la xajmda yoziladi. “Moliyaviy natijalar to'g'risida”gi hisobotga esa shu summa qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chiqarib tashlangan holda yoziladi.

Mahsulot sotish bilan bog'liq debitor qarzlarning tahlil qilishdan maqsad korxonaning sotish strategiyasi va taktikasi bo'yicha qarorlar qabul qilishdir. Raqobatli bozorda tovarni faqat oldindan to'loa sharti bilan sotib bo'lmaydi. Debitor qarzlari esa korxonada kapitali aylanishini sekinlashtiradi. Demak, debitor qarzlari tezroq kelib tushishi choralarini doimo qo'llab borish lozim bo'ladi.

Bunga debitor qarzlari aylanishini va uni tezlashtirish omillarini tahlil qilish bilangina erishiladi. Debitor qarzlari muayyan qismi korxonaga kelib tushadigan resurslar uchun oldindan bajarilgan to'lovlar tufayli ham shakllanadi. Bunday to'lovlarni optimallashtirish orqali ham korxonaga kapitali aylanishini tezlashtirish mumkin. Bundan tashqari, xodimlarni qo'llab-quvvatlash uchun ularga beriladigan qarzlarni, hamkor korxonalariga qisqa muddatli moliyaviy yordam ko'rishidagi qarzlarni ham korxonaga biznes faoliyatining ajralmas qismidir va ular ham muntazam ravishda tahlil qilib borilishi lozim.

Bozor munosabatlari sharoitlarida debitor qarzlari tahlilining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Masalan, uning asosida shubxali debitor qarzlarni yoki qaytarilmay qolib ketadigan debitor qarzlarni baholab borilishi va tegishli moliyaviy zaxiralar tashkil etilishi lozim. Xalqaro xo'jalik amaliyoti qoidalaridan kelib chiqqan holda soliq kodeksida nomid debitor qarzlarni bo'yicha zahiralar tashkil etishga va tegishli summalarni sotish xarajatlariga kiritishga ruxsat beriladi. Bunday hisob-kitoblar esa debitor qarzlari tahliliga asoslanadi.

Debitor qarzlari tahlili axborot bazasi bilan ish olib borilishi qulaylashtirilishi nuqtai nazaridan korxonaga hisob siyosatida quyidagilar nazarda tutilishi lozim:

- 4010 hisob tarkibida muddati o'tgan debitor qarzlari hisobi bo'yicha alohida subschyot ochish;
- Pul mablag'lari hisobi yuritiladigan hisoblarda debitor qarzlari kelib tushishini alohida subschyotlarda aks ettirish;
- "Pul oqimlari to'g'risida" gi hisobotda debitor qarzlari bo'yicha pul tushumlarini alohida satrda ajratib ko'rsatish;

Xulosa

Taklif qilinayotgan yondashuvlarning qo'llanilishi moliyaviy boshqaruv, shu jumladan korporativ boshqaruv maqsadlarida debitor qarzlari tahlili sifatli olib borilishini va xulosalar asosli bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek buxgalteriya hisobi va tahlili milliy tizimi usullarini xalqaro usullarga uyg'unlashuvdagi yana bir muhim qadam bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrda 140-sonli buyrug'iga 1-sonli ilova: "Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoidalar"
2. 21-Buxgalteriya Hisobining Milliy Standarti.
3. Raximov M.Yu., Qalandarova N.N. Moliyaviy tahlil. Darslik.-T.; "Iqtisod-Moliya", 2019. -736 b.
4. Donald E. Kieso, J. Weygandt, Terry D. Warfi eld. INTERMEDIATE ACCOUNTING. John Wiley& Sons, USA. 2004. 1332p.

5. Prasanna Chandra. Financial Management / Theory and Practice. Tata McGraw Hill Education Private Limited, NEW DELHI. 2012.1062 p.
6. Lubis, S. N., Menglikulov, B., Shichiyakh, R., Farrux, Q., Ugli, B. O., Karimbaevna, T. M., ... & Jasur, S. (2024). Temporal and spatial dynamics of bovine spongiform encephalopathy prevalence in Akmola Province, Kazakhstan: Implications for disease management and control. *Caspian Journal of Environmental Sciences*, 22(2), 431-442.
7. Abdulazizovich, X. U. B. (2024). MOLIVAVIY AKTIVLAR TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(2), 82-86.
8. Abdulazizovich, K. U. (2022). Improving Methodological Approaches to Financial Asset Accounting. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(4), 56-62.
9. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). XALQARO QOIDALAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.
10. Abdulazizovich, K. U. IMPROVING THE REFLECTION OF MONEY AND CASH EQUIVALENT IN THE ACCOUNTING BALANCE. *Dear Academicians & Research Scholars*, 55.
11. Abdulazizovich, K. U. B. (2023). Improvement Of Information About Accounts Receivable In Current Assets In The Balance Sheet Based On International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 2849-2859.
12. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirezayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. *Tashkent" economics-finance"—2013*.
13. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071*, 12(11), 38-47.
14. Холмирзаев, У. А. (2023). ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ: ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.
15. Xolmirzaev, U. A. (2020). Financial assets and improvements of their analysis. *Экономика и социум*, (1 (68)), 102-105.
16. Abdulazizovich, X. U. B. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. *Ilmiy monografiya. Toshkent—2023*.

17. Xolmirzayev, U. B., & Ergashev, I. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH TIZIMI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(5), 109-115.
18. Хакимов, Б., Талабоев, Х., & Холмирзаев, У. (2021). ВОПРОСЫ УЛУЧШЕНИЯ АНАЛИЗА ОБРАЩЕНИЯ ДОЛГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ НАПРАВЛЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (85)), 441-446.
19. Xolmirzayev, U. B., & Hakimova, G. Z. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY MEKANIZMI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 96-98.
20. Abdulazizovich, X. U. B., & Abdullajanovich, U. T. (2024). SANOAT ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT YO 'NALISHLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 17-21.
21. Khakimov, J. B., & Kholmirzayev, A. U. (2021). Positive Aspects Of Cash Method In Small Enterprises In The Context Of Pandemic. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).
22. Abdulazizovich, X. U. B., & Muhabbat, N. (2024). INCREASING COMPETITIVENESS IN THE COMMODITY MARKET IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 42(1), 197-206.
23. Холмирзаев, У. А., & Самижонова, Ш. С. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ДЕНЕГ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 755-766.
24. Холмирзаев, У. А., & Камолдинов, О. О. (2022). АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ О ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПО ОБОРОТНЫМ СРЕДСТВАМ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 767-779.
25. Убайдуллаев, Т., & Холмирзаев, У. (2019). ФАКТОРЫ И ТЕНДЕНЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА. *Мировая наука*, (1 (22)), 299-302.
26. Gulshirin, J., & Abdulazizovich, X. U. B. (2022, March). INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF EXPORT DIVERSIFICATION IN THE REGION. In *Conference Zone* (pp. 277-281).
27. Khakimov, B., & Kholmirzayev, U. (2020). Improving Cash Accounting And Analysis On The Basis Of International Experiences. *International Finance and Accounting*, 2020(1), 18.

28. Hakimov, B., Yunusov, M., & Holmirzayev, U. (2018). Elaboration of The Balance Sheet Liquidity Analysis-Requirements of The Period. *International Finance and Accounting*, 100.
29. Xolmirzaev, U. A., & Juraev, E. S. (2020). Problems of improvement of debtor debt debt analysis. *Мировая наука*, (1 (34)), 100-105.
30. Sirojiddinov, I., Xolmirzaev, U., & Axmadjonova, M. (2021). THE NEED AND FACTORS TO ACCELERATE THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *Интернаука*, (21-5), 14-16.
31. Камолов, А. А., & Холмирзаев, У. А. (2016). Малый бизнес и частное предпринимательство в Узбекистане. *Вопросы экономики и управления*, (5), 182-184.
32. Abdulazizovich, X. U. B., Qutbiddinovich, S. I., & Sobirjon o'g'li, J. E. (2021). Positive aspects of the cash method in small businesses in a pandemic environment. *American Journal of Economics and Business Management*, 4(3), 1-8.
33. Abdurahmon, K., & Abdulazizovich, K. U. (2021, December). Some Issues of Improving Securities Accounting. In *Conference Zone* (pp. 129-132).
34. Abdulazizov, K. U., Sherzod, I., & Abdulkhodineva, S. M. (2022). IMPROVING THE METHODOLOGICAL BASIS OF ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036*, 11, 34-39.
35. Kamolov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2018). Economic Laws And Categories. *Экономика и социум*, (2 (45)), 34-36.
36. Abdulazizovich, K. U. B., & Tursunolatovna, N. N. (2023). Improving Reflection Of Information About Cash And Equivalents In The Accounting Balance Sheet On The Basis Of International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 2107-2114.
37. Abdullaevich, A. O., & Abdulazizovich, K. U. B. (2023). The Importance of Infrastructure in Facilitating the Business Environment. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 3695-3702.
38. Kholmirzaev, U. B. A., & Ubaydullayev, T. A. (2023). Improving the classification of financial assets according to the economic content. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1), 203-209.
39. Qutbiddinovich, S. I., & Abdulazizovich, X. U. B. (2023). GAAP ASOSIGA QO'YILGAN MOLIYAVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI. *Interpretation and researches*, 1(3), 42-50.

40. Kamalov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2016). Small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. *Questions of Economics and Management*, 5(7), 6.
41. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIVIY HISOBOTLARNING QAYTA KO 'RIB CHIQLILISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. *Educational research in universal sciences*, 2(3), 424-432.
42. Xolmirzayev, U. A., & Xakimova, G. A. (2023). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.
43. O'g'li, J. E. S., & Abdulazizovich, X. U. B. (2019). Profits of housekeeping and its development. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 8(4), 419-423.
44. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2020). Supporting small business subjects by tax reforms. *Экономика и социум*, (1 (68)), 48-52.
45. Xolmirzaev, U., Juraev, E., & Axmadjonova, M. (2021). The role of accounting in small business management. *Интернаука*, (21-5), 20-22.
46. Juraev, E., Xolmirzaev, U. A., & Rustamova, M. (2021). INCREASING THE EFFICIENCY OF REAL INVESTMENT IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC LIBERATION. *Интернаука*, (21-5), 9-11.
47. Abdulazizovich, X. U. B., & Djibirxanovna, N. M. (2024). MOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBINING TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Modern education and development*, 12(3), 288-297.
48. Abdulazizovich, X. U. B., & Raxmjonovna, M. N. (2024). QIMMATLI QOG'OZLARNI ANALITIK HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Modern education and development*, 12(4), 18-28.
49. Akbarjon, I. (2024). XARAJATLARNI BUDJETLASHTIRISH BIZNES REJANING MUHIM ASOSI SIFATIDA. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 22-28.
50. Boxodir o'g'li, I. A. (2023). ACCOUNTING AND ANALYSIS OF COSTS AS A BASIS OF BUDGETING. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071*, 12(04), 9-12.
51. Ёғли Исомухамедов, А. Б., & Икромиддин Қутбиддинович, С. (2023). БЮДЖЕТЛАШТИРИШДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 406-412.
52. Boxodir o'g'li, I. A. (2022). FEATURES OF ACCOUNTING IN SMALL

- BUSINESS. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 5, 64-70.
53. Kadirov, S., Isomukhamedov, A., Ergashev, O., & Bakhriev, A. (2021). *The Method of Increasing the Power Indicators of Engines of Gas-Cylinder Vehicles in Mountainous and Foothill Conditions* (No. 5398). EasyChair.
54. Сирожиддинов, И. К., & Исомухамедов, А. Б. (2022). Развитие экспортной направленности сельскохозяйственного производства.
55. Isomuhamedov, A. (2023). ORGANIZATION OF ACCOUNTING IN STRUCTURES OF A SMALL BUSINESS IN THE CONSTRUCTION FIELD. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 17(12), 27-32.
56. Isomukhamedov, A., & Sirojiddinov, I. (2022, January). DETERMINING AND ACCOUNTING FOR THE COST OF PRODUCTION IN SMALL BUSINESSES IN THE MANUFACTURING SECTOR. In *Conference Zone* (pp. 241-243).